

**TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH RESPUBLIKA
ILMIY-METODIK MARKAZI**



YOSH OLIMLAR VA TADQIQOTCHILAR MAKTABI

**MAVZU: ILMIY TADQIQOT ISHINING ASOSIY KIRISH QISMINI
SHAKLLANTIRISHNING ILMIY VA NAZARIY AHAMIYATI**

MUALLIF: Sh.K. Kurbaniyazov

TOSHKENT – 2025

DISSERTATSIYA ISHINING KIRISH QISMINI SHAKLLANTIRISH

Kirish (so'zboshi) dissertatsiya ishining o'qilishi davomida shakllanadigan tushunchani namoyon etishi lozim. Shuning uchun bu qismda ilmiy tadqiqotning obyekti va predmeti aniq va lo'nda yoritib berilishi, mazkur tadqiqotni o'tkazishning dolzarbligi asoslanishi kerak.

Dissertatsiya ishi yangiligi bilan ajralib turishi kerak. Shuning uchun kirish qismida qisqa annotatsiya ko'rinishida muammoning yechilishida (nomzodlik dissertatsiyasi uchun) yoki fan sohasida (doktorlik dissertatsiyasi uchun) muallif tomonidan qilingan yangilik bayon etilgan bo'lishi lozim.

Shuningdek, kirish qismida ishning maqsadi, nazariy ahamiyati, amaliy natijalari, tadqiqot metodlari, muallif himoyaga olib chiqayotgan asosiy holatlar, ishning sinovdan o'tishi (aprobatsiyasi) hamda nashr etilgan ishlar bo'yicha ma'lumotlar va dissertatsiya tuzilishi (strukturasi) keltiriladi.

DISSERTATSIYA MAVZUSINING DOLZARBLIGI VA ZARURATI



1

Mavzuning ijtimoiy va ilmiy ahamiyatini yoritib berish

2

Ilmiy muammo yoki kam o'rganilgan jihatlarini ko'rsatib o'tish

3


Amaliy ahamiyati, qo'llanilish zarurati va yangi davr talablariga mosligini ifodalash

4

Tadqiqot doirasida normativ-huquqiy hujjatlarda keltirilgan vazifalarga mosligi

MUAMMONING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Kirish qismida muammoning o'rganilganlik darajasini keltirishdan oldin tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanish va ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirib o'tilishi zarur.



DISSERTATSIYA ISHINING MAQSAD VA VAZIFALARI

Maqsad va vazifalar qismi yoritilishidan oldin tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim tashkilotining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi keltirib o'tilishi kerak.

TADQIQOT MAQSADI

**Ilmiy muammoni hal qilishga
yo'naltirilgan asosli yechim va
takliflar ishlab chiqish belgilanadi**

Ya'ni, tadqiqotchi aniq muammo ustida ishlashi, yangilik, takomillashtirish yoki konsepsiya ishlab chiqishga qaratilgan an'anaviy ilmiy ifoda bilan maqsadni yozishi kerak.

TADQIQOT VAZIFALARI

**Maqsadga erishish uchun zarur
tahlil, baholash, solishtirish va taklif
bosqichlarini belgilash**

Ya'ni, har bir vazifa – ilmiy harakat bosqichi bo'lib, ular ilmiy manbani o'rganish, tajriba tahlili, muammoni aniqlash, amaliy tavsiya berish kabi aniq yo'nalishlarga ega bo'lishi zarur.

TADQIQOTNING OBYEKTI, PREDMETI VA USULLARI

01

Tadqiqot obyekti

Tadqiqot obyekti sifatida dissertatsiya mavzusi doirasida ilmiy izlanishlar olib borilishi rejalashtirilgan tashkilot, korxona, tizim yoki boshqalar belgilab olinadi

02

Tadqiqot predmeti

Tadqiqot predmetida esa obyekt doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotning qaysi qismiga tegishliligi ifodalab o'tiladi

03

Tadqiqot usullari

Tahlil, sintez, tizimli yondashuv, qiyosiy taqqoslash, iqtisodiy-matematik modellashtirish, ekspert baholash, ijtimoiy so'rov, SWOT tahlil va boshqa shu kabi usullar qo'llaniladi

TADQIQOTNING ILMIY YANGILIGI

Ilmiy yangilik – ilm-fanning avval hech kim qilmagan yoki o'rganmagan sohasi.

Ilmiy yangilikka qo'yilgan asosiy talablar:

01

Qo'yilgan vazifalarning yangi yechimlari asoslangani

02

Muammolarni hal qilishning yangi tamoyillari ishlab chiqilgani

03

Yangi hodisalar o'rganilgani

04

Yangi metodlar taqdim etilgani va boshqalar



Ilmiy yangilikni shakllantirish ham dissertatsiya matnida yozilishi kerak bo'lgan, ham himoyaga kiritiladigan eng muhim elementlardan biridir. Ya'ni agar tadqiqotchi o'z ishining xususiyatiga to'liq asos qilib **"birinchi marta"** tushunchasidan foydalanadi va bu dissertatsiya ishida ilmiy yangilik bor ekanligini bildiradi. Bundan tashqari, tadqiqotchi uning tadqiqot mavzusi bo'yicha chop ettirgan ishlaridan avval bu kabi tadqiqotlar yoki natijalar mavjud bo'lmaganligini tasdiqlashi kerak.

TADQIQOTNING NAZARIY VA AMALIY AHAMIYATI


NAZARIY AHAMIYATI



Ilmiy-tadqiqot ishiga qo'yilgan muhim zaruriy talablardan biri ilmiy tadqiqotning qiymatini nazariy jihatdan tavsiflash hisoblanadi. Tadqiqotning nazariy ahamiyati tadqiqotchiga mavjud ilmga qo'shgan hissasi nimada ekanligini aniqlashtirishda yordam beradi.

AMALIY AHAMIYATI

Tadqiqotning amaliy ahamiyati deganda mavzuga oid materialni ochib berish, tadqiqotning obyekti va predmeti haqidagi yangi ma'lumotlarni taqdim qilish tushunilishi kerak.



XULOSA

OAK talablariga muvofiq, dissertatsiyaning kirish qismida quyidagilar bo'lishi kerak:

- ✓ dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati;
- ✓ tadqiqotning respublika ilm-fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi;
- ✓ dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning qisqacha bayoni (faqat fan nomzodi dissertatsiyasi uchun);
- ✓ muammoning o'rganilganlik darajasi;
- ✓ dissertatsiya tadqiqotining tadqiqot bajarilgan oliy ta'lim muassasasi yoki ilmiy tadqiqot muassasasi tadqiqot rejalari bilan aloqasi;
- ✓ tadqiqotning maqsadi;
- ✓ tadqiqotning vazifalari;
- ✓ tadqiqotning obyekti;
- ✓ tadqiqotning predmeti;
- ✓ tadqiqot metodlari;
- ✓ tadqiqotning ilmiy yangiligi;
- ✓ tadqiqotning amaliy natijalari;
- ✓ tadqiqot natijalarining ishonchliligi;
- ✓ tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati;
- ✓ tadqiqot natijalarining joriy etilishi;
- ✓ tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi;
- ✓ tadqiqot natijalarining chop etilganligi;
- ✓ tadqiqotning tuzilishi va hajmi.



**E'TIBORINGIZ UCHUN
RAHMAT!**